

 MKBANK	QR-kod uchun joy	Kreditning to'liq qiymati miqdori: _____ (_____) foiz <i>so'z bilan</i>
---	-----------------------------	---

“Saving energy” iste'mol krediti ajratish to'g'risidagi _____-sonli

KREDIT SHARTNOMASI

_____ **viloyati** _____ **yil**

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki, bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiluvchi nomidan _____._____._____ **yildagi** _____-sonli ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi Bankning _____ rahbari _____ bir tomondan va keyingi o'rinlarda “Qarz oluvchi” deb yuritiluvchi fuqaro _____ (pasport ma'lumotlari: _____, _____._____ yilda _____ tomonidan berilgan) ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda “Tomonlar” deb yuritiluvchilar ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu shartnoma matni bo'yicha keyingi o'rinlarda uchraydigan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha ma'no anglashilmasa, ushbu bo'limda bayon qilingan ma'nolarni anglatadi:

- **“Saving energy” iste'mol krediti (keyingi o'rinlarda – “kredit”)** – kredit olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan va 65 yoshdan oshmagan, doimiy rasmiy daromadga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shamol generatorlari, quvvati 1 MVt gacha bo'lgan mikro va kichik gidroelektrostansiyalari, biogaz ishlab chiqaruvchi uskunalari, biogaz qurilmalari, boshqa qayta tiklanuvchi energiya manba qurilmalari¹, energiya saqlash tizimlari², maishiy energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar³ va qozonlarni⁴ hamda boshqa turdagi energiya tejamkor va qayta tiklanuvchi energiya manba vositalarini xarid qilishda tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun bank tomonidan qonunchilik, mazkur shartnoma shartlari va bank ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlilik va maqsadlilik tamoyillari asosida beriladigan pul mablag'i;

- **qarz oluvchi** – kredit olgan hamda kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini olgan, kredit olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan va 65 yoshdan oshmagan, doimiy rasmiy daromadga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

- **kredit foizi** – kreditdan foydalanganlik uchun qo'shimcha to'lov;

- **kompensatsiya** – kredit foiz stavkasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 5 (besh) foizli banddan ko'p bo'lmagan qismini qoplab berish maqsadida uch yil muddatgacha O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi

¹ Yer, havo va suvning past potensial issiqlik energiyasidan foydalanuvchi issiqlik nasoslari.

² Elektr va/yoki issiqlik energiyani saqlovchi tizimlar.

³ Maksimal issiqlik quvvati 30 kVtdan yuqori bo'lmagan.

⁴ Energiya samaradorligi 91 foizdan past bo'lmagan va maksimal issiqlik quvvati 50 kVtdan yuqori bo'lmagan bir yoki ikki konturli isitish qozonlari.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

Budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

• **kredit bo'yicha qarzdorlik** – Qarz oluvchi nomiga ochilgan tegishli hisobvaraqlarda hisobi yuritilayotgan kreditning hammasi yoxud qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan kreditning qoldig'i, kreditdan foydalanilganlik uchun hisoblangan foizlar;

• **kreditni o'zlashtirish muddati** – ushbu shartnomada belgilangan, Qarz oluvchi tomonidan kredit resurslarini o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan davr;

• **kredit berilgan sana** – Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan mijozga kredit ajratish yuzasidan tegishli buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshirilgan sana;

• **kreditni qaytarish sanasi** – ushbu shartnomadan kelib chiqib, kredit bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarning va asosiy qarz qoldig'ini qoplaydigan, Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishga olib keladigan oxirgi to'lov sanasi;

• **to'lov majburiyatlari** – Qarz oluvchining kredit bo'yicha qarzlarni, uning bo'yicha foizlarni ushbu shartnomada ko'rsatilgan summada va muddatlarda to'lash bo'yicha hamda boshqa to'lovlar majburiyatlari;

• **kredit bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzdorlik** – kredit yoxud uning bir qismi, kreditdan foydalanganlik uchun hisoblab yozilgan foizlar, Qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda to'lanmagan boshqa to'lov majburiyatlari bo'yicha qarz summasi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar uchun ushbu shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda kredit mablag'ini ajratish, Qarz oluvchi esa olingan kreditdan foydalanganlik uchun qarz va unga hisoblangan foiz to'lovlarini mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda va shartlarda to'lagan holda qaytarish majburiyatini oladi.

III. Kreditni ajratish shartlari

3.1. Kreditning umumiy summasi _____ (_____) **so'mni** tashkil etadi.

3.2. Kredit ajratish uchun Qarz oluvchiga Bankda alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi.

3.3. Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga asosan ssuda hisobvarag'idan kredit mablag'lari ajratish: _____ ga tegishli _____ **-sonli** hisobvaraqa naqdsiz ko'rinishda pul mablag'i o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

3.4. Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi), ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim (kreditni o'zlashtirish muddati).

3.5. Kredit muddati: _____ (_____) **oylik** imtiyozli davr bilan _____ (_____) **oy**.

3.6. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz to'lovi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan 6 foizlik punkt yuqori stavkani tashkil etadi. Belgilangan kredit foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa o'zgarishsiz qoladi. Bunda foiz to'lovlaridagi o'zgarishlar Markaziy bank asosiy stavkasining pasaytirilishi amalga kiritilgan kundan boshlab hisob-kitob qilinadi.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

3.7. Kredit bo'yicha foizlar Bank tomonidan har kuni ushbu shartnomaning 3.6-bandida belgilangan foiz stavkasida va kredit berilgan sanadan boshlab Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idagi kredit summasi qoldig'iga nisbatan hisoblab boriladi.

3.8. Kredit maqsadi: O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga muvofiq _____

dan _____

xarid qilish uchun.

IV. Kompensatsiya to'lab berish tartibi

4.1. Kompensatsiya kredit foiz stavkasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 5 (besh) foizli banddan ko'p bo'lmagan qismini qoplab berish maqsadida uch yil muddatgacha O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) ning mablag'lari hisobidan to'lab beriladi.

4.2. Kompensatsiya faqat kreditning tasdiqlangan qaytarish grafigida qayd etilgan summalarga muvofiq tarzda ajratiladi va kompensatsiya muddati o'tgan to'lovlar uchun hisoblangan penyalar, jarimalar, oshirilgan foizlarga nisbatan tadbqiq etilmaydi.

4.3. Kompensatsiya mablag'lari hisobi alohida 16327-son balans hisobvarag'ida yuritiladi.

4.4. Kreditni qaytarish muddati va kreditni qaytarish grafigi o'zgartirilganida yoki kredit to'liq yoki qisman muddatidan avval qaytarilganida kompensatsiya miqdorlari qayta hisob-kitob qilinib, kredit summasi va muddatiga mos ravishda to'lab boriladi.

4.5. Bankka bog'liq bo'lmagan hollarda (xarajatlar smetasining tasdiqlanmaganligi, yuqori turuvchi organlar tomonidan Jamg'arma hisobvaraqlarining to'xtatib qo'yilishi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mablag'lar ajratilmaganda va boshqa hollarda) kompensatsiya ajratish kechiktirilganda, Bank javobgar hisoblanmaydi va hech bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi.

4.6. Kompensatsiya Bank tomonidan Jamg'armaga taqdim etiladigan mazkur shartnomaning 8.1.9-bandida ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlar hamda buyurtmanoma asosida Jamg'arma tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq Jamg'arma tomonidan taqdim etiladi.

4.7. Kompensatsiya ajratilishi yoki ajratilmasligi to'g'risida qaror Jamg'arma tomonidan qabul qilinadi hamda Jamg'armaning har qanday qarori va Jamg'arma tomonidan qaror qabul qilinishi uchun sarflanadigan muddat bo'yicha Bank hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi va javobgar hisoblanmaydi.

4.8. Jamg'arma tomonidan kompensatsiya ajratilishi rad etilgan taqdirda, Jamg'armaning kompensatsiya ajratilishi rad etilganligi to'g'risidagi xabarnomasi Bankka kelib tushgandan so'ng Bank Qarz oluvchini (telefon qo'ng'irog'i, SMS-xabamoma, bankning Call-markazi, pochta, elektron pochta va/yoki boshqa aloqa vositalari orqali har qanday shaklda) bu haqida xabardor qiladi.

4.9. Jamg'arma tomonidan kompensatsiya ajratilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Jamg'armaning kompensatsiya ajratilishi to'g'risida xabarnomasi Bankka kelib tushgandan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida kompensatsiya ajratilishi to'g'risida Bank Qarz oluvchini (telefon qo'ng'irog'i, SMS-xabamoma, bankning Call-markazi, pochta, elektron pochta va/yoki boshqa aloqa vositalari orqali har qanday shaklda) xabardor qiladi.

4.10. Jamg'arma tomonidan kompensatsiya ajratilishi quyidagi holatlarda to'xtatiladi:

- foiz to'lovlari kompensatsiya qilinadigan kreditdan maqsadsiz foydalanilganda;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

- Qarz oluvchi kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq bankka to'lovlarni to'lash majburiyatlarini 3 (uch) oy ichida ketma-ket bajarmaganda;
- qarz oluvchi tomonidan kredit summasi va unga hisoblangan foizlar muddatidan oldin so'ndirilganida;
- Bank va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda;
- Qarz oluvchining bank hisobvarag'idagi mablag'lari xatlovga olinganda;
- Qarz oluvchi tomonidan Bankka va Jamg'armaga (Bank orqali) taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi va taqdim etilganligi aniqlanganda.

V. Qarz oluvchining tasdiqnomasi

5.1. Qarz oluvchi quyidagilarni ma'lum qiladi va tasdiqlaydi:

- Bankka taqdim etilgan (etiladigan) kreditni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanadi;
- Qarz oluvchiga nisbatan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligini;
- Agar qarz oluvchi to'lovlarni amalga oshirishga yoki ushbu shartnomada belgilangan talablardan istalganini bajarishga qodir bo'lmasa, Bankning kreditni muddatidan oldin qaytarishni va kreditga hisoblab yozilgan foizlar va boshqa to'lovlarning muddatidan oldin to'lanishini talab qilishga, undiruvni Bank bilan kelishilgan shartlarda kredit ta'minotiga qaratishga, muddatida to'lanmagan kredit va unga hisoblangan foizlarni Qarz oluvchining banklarda ochilgan barcha turdagi hisobvaraqlaridagi, shu jumladan, uning depozit va bank kartasi hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarishga haqli ekanligini tan olishini va bunga e'tiroz bildirmasligini;
- Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlari Bankning avtoso'ndiruv xizmatiga ulanishiga rozi ekanligini va ushbu xizmat orqali Bank tomonidan kreditning to'lov muddati kelgan qismi va unga hisoblagan foizlarni qoplash uchun yetarli bo'lgan mablag'lar Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlaridan qo'shimcha ogohlantirishlarsiz avtomatik tarzda hisobdan chiqarilishi tushuntirilganligini;
- Qarz oluvchining ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchining ushbu shartnomaga, Fuqarolik kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik keltirib chiqarishi haqida ogohlantirilganligini;
- Qarz oluvchi o'zi haqidagi va unga Bank tomonidan ajratilayotgan kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axborotining davlat reyestrini yuritish departamentiga" (KADR), "Kredit axborotlari tahlil markazi" (KATM) Kredit byurosi MChJga hamda garovga taqdim etilgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Garov reyestri" DUKga taqdim etilishiga roziligini.

VI. Kreditni to'lash tartibi

6.1. Qarz oluvchi ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan kredit qaytarish grafigiga muvofiq har oylik (davriy) to'lovlarni bosqichma-bosqich o'z sanasi va summasi doirasida, Qarz oluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochilgan hisobvaraqa to'lab

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

boradi. Kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli: differensial yoki annuitet (kerakli to'lovning tagiga chiziladi).

6.2. Qarz oluvchi tomonidan to'langan to'lovlar quyidagi tartibda kreditni qoplashga yo'naltiriladi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;
- 3) qarzдорning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

6.3. Qarz oluvchining so'roviga asosan Qarz oluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochilgan hisobvaraqa to'langan mablag'lar ushbu shartnomaga muvofiq kreditning muddati kelmagan asosiy qarzini qisman muddatidan oldin qaytarishga yo'naltirilishi mumkin.

Kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan Kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki Kreditning oraliq asosiy qarzi to'lovlarining miqdorlari o'zgarmaydi. Foiz to'lovlari asosiy qarzning qoldig'iga nisbatan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq hisoblanadi.

6.4. Bank ushbu shartnomaning 6.1-bandiga muvofiq to'lov muddati kelgan, lekin to'lanmagan kreditni, kreditga hisoblangan foiz va oshirilgan foiz to'lovlarini Bankning avtoso'ndiruv xizmati orqali Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib oladi.

6.5. Mazkur shartnoma tuzilganidan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari o'zgarsa, shartnoma shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilsa, ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish yo'li bilan kredit qaytarish grafigiga o'zgartirish kiritiladi.

6.6. Qarz oluvchi ushbu shartnoma va u bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, ro'yxatga olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Bankning birinchi talabiga ko'ra to'lab beradi.

6.7. Mijozdan kreditning joriy to'lovi uchun kredit qaytarish grafigida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank mijozning so'roviga (topshirig'iga) asosan kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini qarz oluvchi kreditining asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirishi mumkin.

VII. Kredit ta'minoti bo'yicha talablar

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

7.1.1. Bank va _____ sug'urta kompaniyasi o'rtasida **20** ____-yil ""-_____**da** tuzilgan _____-sonli kredit asosiy qarzining qaytmasligini sug'urtalash yuzasidan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi.

7.1.2. Bank, Qarz oluvchi va _____ o'rtasida **20** ____-yil ""-_____**da** _____ (_____) **so'm** miqdorga tuzilgan _____-sonli kafillik shartnomasi bilan;

7.1.3. _____

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

(qo'shimcha yoki boshqa ta'minot taqdim qilinganda to'ldiriladi)

7.2. Bank Qarz oluvchidan kredit qaytarilishining boshqa ta'minotini talab qilish huquqiga ega.

7.3. Ushbu shartnoma bo'yicha kreditning qaytarilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan alohida sug'urta, kafillik yoki garov shartnomasi doirasida tartibga solinadi.

7.4. Ushbu shartnoma bo'yicha kreditning qaytarilishini ta'minlashning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan alohida shartnomalar doirasida tartibga solinadi. Shu bilan birga notarial tasdiqlashni va davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qiluvchi shartnomalar ularning notarial tasdiqdan o'tkazilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytidan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

7.5. Qarz oluvchi kreditni ta'minlashni kredit summasining kamida _____ foizi darajasida tutish majburiyatini oladi.

7.6. Kreditning ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar (bitim, shartnomalar) ushbu shartnoma bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi va mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan olingan majburiyatlar bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

7.7. Kreditning qaytaruvchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

7.8. Agar ta'minot kredit qaytmaslik xataridan sug'urtalash sug'urta polisi bo'lsa, sug'urtaning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasida belgilanadi. Agar ta'minot uchinchi shaxs kafilligi bo'lsa, kafillikning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan kafillik shartnomasida belgilanadi. Agar ta'minot garov bo'lsa, garovning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan garov predmetining garov shartnomasida belgilanadi.

Agar ta'minot kredit qaytmaslik xataridan sug'urtalash sug'urta polisi bo'lsa, sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi va sug'urta mazkur shartnomaning butun amal qilish muddati uchun ta'minlanadi.

Agar ta'minot garov bo'lsa, garov predmeti sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalanadi va sug'urta mazkur shartnomaning butun amal qilish muddati uchun ta'minlanadi. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

Qarz oluvchi va uning turmush o'rtog'ining nomiga rasmiylashtirgan umumiy mol-mulkka (Garov predmetiga) ta'qiq qo'yishda Qarz oluvchining turmush o'rtog'ining rozilik arizasi (er yoki xotinining roziligi) notarial tartibda olinishi shart (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-24-moddalariga asosan, er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq bitim tuzilayotganda xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinishi shart).

7.9. Agar ta'minot garov bo'lsa va Qarz oluvchi ushbu shartnomada belgilangan kredit qaytarish grafigida belgilangan sanalarga qadar kredit bo'yicha asosiy mablag'ning, uning foizi va/yoki ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni amalga oshirmasa, bunda qarzdorlik 30 kundan ortiq muddatda to'lanmagan taqdirda, bank qarzdorga rasmiy ogohlantirish xati yuborgandan so'ng 15 kun muddatdan so'ng, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank shartsiz va shubhasiz undiruvni garov predmetiga qaratish va taqdim etilgan kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqini qo'lga kiritadi.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

7.10. Agar ta'minot garov bo'lsa, undiruv Garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratilganda, bank undiruvning birinchi navbatdagi obyektini o'z xohishiga ko'ra bir tomonlama tartibda tanlash va bir vaqtning o'zida undiruvni garov predmetiga (predmetlariga) qaratish huquqlarini o'zida saqlab qoladi. Undiruvni Garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratish Bankni undiruvni garov predmetining boshqa obyektiga (obyektlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratishdan cheklamaydi.

7.11. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning bir nechta usullari mavjudligi bir-biriga zid bo'lmaydi, majburiyatlarni bajarishning har qaysi usuli mustaqil hisoblanadi va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi.

7.12. Zarurat bo'lganda, undirishni majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga qaratishda tanlash huquqi Bankda qoladi, u o'z xohishiga ko'ra talabni usullardan istalganiga yoki majburiyatlarni bajarishni ta'minlashning barcha usullariga qo'yishi mumkin.

VIII. Tomonlarning huquqlari

8.1. Bankning huquqlari:

8.1.1. Qarz oluvchining moliyaviy holatini, garovga qo'yilgan mol-mulk (agar mol-mulk taqdim etilgan bo'lsa) ning texnik holatini nazorat qilib turish hamda istalgan paytda va o'zi tomonidan belgilanadigan shaklda kreditdan maqsadli foydalanilayotganlik bo'yicha Qarz oluvchida o'rganish (tekshirish) o'tkazish.

O'rganish (tekshirish) ishlari doirasida Bank xarid qilingan tovarni saqlash va undan maqsadli foydalanish bo'yicha barcha muhim sharoitlar bilan tanishishga haqli.

8.1.2. Qarz oluvchidan majburiyatlarni bajarishda nazoratni amalga oshirish uchun kerakli hujjatlarni so'rab olish.

8.1.3. Qarz oluvchi ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kreditni 30 kalendar kundan oshmagan muddatda o'zlashtirmagan taqdirda, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda Qarz oluvchini yozma ravishda xabardor qilgan holda bekor qilish.

8.1.4. Bank tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq qo'shimcha xarajatlar talab qilinadigan, Qarz oluvchining qo'shimcha topshiriqlarini, u tomonidan qo'shimcha xarajatlar to'lanmagunga qadar bajarmaslik.

8.1.5. Ajratilgan kreditning muddati kelgan qismini, kreditga hisoblangan foiz va oshirilgan foiz to'lovlarini Bankning avtoso'ndiruv xizmati orqali Qarz oluvchining (kafilning) bank karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib olish. Bunday bank operatsiyasi Qarz oluvchini oldindan ogohlantirishsiz, to'lov muddati kelgan sanada va undan keyingi har qanday sanada avtomatik tarzda amalga oshiriladi hamda amalga oshirilgan bu turdagi bank operatsiyasi haqida Qarz oluvchi (kafil) ga mazkur shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilinadi.

8.1.6. Berilgan kreditning maqsadsiz ishlatilish hollari aniqlangan taqdirda, Qarz oluvchiga maqsadsiz ishlatilgan summaning 25 (yigirma besh) % miqdorida jarima hisoblash va ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan kredit summasini jarima bilan birgalikda to'liq qaytarilishini Qarz oluvchidan talab qilish.

8.1.7. Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarning kredit shartnomasida kelishilgan va kredit qaytarish grafigida belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lanmaslik holati 30 kundan ortgan taqdirda, Bank qarzdorga rasmiy ogohlantirish xati yuborishga haqli va rasmiy ogohlantirish xati yuborilgan kundan boshlab 15 kun muddat ichida

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

qarzdorliklar Qarz oluvchi tomonidan to'lanmasa, bank Fuqarolik kodeksining 280-moddasi ikkinchi qismiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan bank va mijoz o'rtasida tuzilgan hamda notarius tomonidan tasdiqlangan yozma bitimga muvofiq mustaqil ravishda, sudga murojaat qilmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi.

8.1.8. Bank kredit byurosiga va garov reyestriga ushbu shartnoma shartlari va kreditning qaytarilishini ta'minlash hamda Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilishi haqida ma'lumot taqdim etib boradi.

8.1.9. Kompensatsiya taqdim qilinishi va kompensatsiya mablag'larining maqsadli ishlatilishini tekshirib borilishi uchun Qarz oluvchi (kafil(lar)) ning F.I.Sh., JShShIR, Qarz oluvchiga ajratilgan kredit summasi, kredit muddati, foiz stavkasi, kredit maqsadi, kredit berilgan sana, kreditni qaytarish sanasi, hisobvaraqlardagi hisoblangan foizlar, kredit shartnomasi va kreditni qaytarish grafigi nusxasi hamda kredit bo'yicha boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni Jamg'armaga taqdim qilish.

8.1.10. Mazkur shartnomaning 4.10-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganida kompensatsiya va kompensatsiya ajratilishi yuzasidan hisob-kitoblarni to'xtatish;

8.1.11. Jamg'armaga istalgan paytda kompensatsiyadan maqsadli foydalanilayotganlik bo'yicha o'rganish (tekshirish) o'tkazish uchun imkoniyat yaratib berish.

8.1.12. Bankka bog'liq bo'lmagan hollarda (xarajatlar smetasining tasdiqlanmaganligi, yuqori turuvchi organlar tomonidan Jamg'arma hisobvaraqlarining to'xtatib qo'yilishi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mablag'lar ajratilmaganda va boshqa hollarda) kompensatsiya ajratish kechiktirilganda, shuningdek ushbu shartnomaning 4.10-bandida ko'rsatilgan holatlar sababli kompensatsiya berilishi va kompensatsiya mablag'larining kredit foiz to'lovlariga yo'naltirilishi to'xtatilganida javobgar hisoblanmaslik va hech bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik.

8.1.13. Kompensatsiya ajratilishi yoki ajratilmasligi to'g'risida Jamg'armaning har qanday qarori va Jamg'arma tomonidan qaror qabul qilinishi uchun sarflanadigan muddat bo'yicha hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaslik va javobgar hisoblanmaslik.

8.1.14. Bank qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8.1.15. Kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kreditga), Bank Qarz oluvchiga butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foizning 1,5 baravari miqdorida foiz (oshirilgan foiz) hisoblash va mazkur foiz to'lovlarini to'lashni Qarz oluvchidan talab qilish. Bunda, mazkur Shartnoma bo'yicha yillik qarz summasining yarmidan ko'p miqdorida oshirilgan foizlar hisoblashga yo'l qo'yilmaydi.

8.1.16. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

8.2. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu shartnoma bo'yicha o'zida Qarz oluvchiga nisbatan mavjud bo'lgan huquqlardan istalganini qo'llashi yoxud qo'llamasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarni qo'llamaslik yoxud qisman qo'llash ushbu huquqlardan voz kechilishini bildirmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

8.3. Qarz oluvchining huquqlari:

8.3.1. Ushbu shartnomaning 3.4-bandida ko'rsatilgan davr mobaynida va ushbu shartnomada ko'rsatilgan summa doirasida ssuda hisobvarag'idan to'lovni amalga oshirish bo'yicha ariza berish.

8.3.2. Bankni kredit berilishidan oldin 5 kun ichida xabardor qilib, kreditni olishdan bepul tarzda to'liq yoki qisman voz kechish;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

8.3.3. Mazkur shartnoma shartlariga amal qilgan holda qarzdorlikni muddatidan oldin so'ndirish.

8.3.4. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq bajargan holda mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

8.3.5. Kompensatsiya mablag'laridan belgilangan tartibda foydalanish.

8.3.6. Mazkur shartnomaning 4.10-bandida nazarda tutilgan holatlarga ko'ra to'xtatish sabablari bartaraf etilgach, kredit bo'yicha kompensatsiyadan belgilangan tartibda foydalanish huquqini tiklash.

IX. Tomonlarning majburiyatlari

9.1. Bankning majburiyatlari:

9.1.1. Qarz oluvchi tomonidan barcha zarur shartlar bajarilgach, kredit mablag'ini Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga asosan ajratish.

9.1.2. Qarz oluvchini kredit uchun to'lovlarning oshirilishi yoki kamaytirilishi sabablari, kreditni berishni rad etish, kreditni muddatidan oldin undirish va undiruvni kredit ta'minotiga qaratish sabablari to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish.

9.1.3. Agar garov ta'minot bo'lsa, mazkur shartnomaga muvofiq, Qarz oluvchi kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlikning summasini to'lash majburiyatini to'liq bajargan sanadan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay:

- Qarz oluvchi tomonidan kredit to'liq qoplangandan so'ng, Qarz oluvchining iltimosiga binoan, garov ta'minoti uchun ta'qiqni olib tashlash bo'yicha tegishli organlarga ma'lumotnomalar taqdim etish.

- garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan bank huquqlarini Garov reyestridan o'chirish bo'yicha choralarni ko'rish.

9.1.4. Jamg'arma tomonidan to'lab berilgan kompensatsiya mablag'larining hisobini yuritish hamda o'rnatilgan tartibda kompensatsiya mablag'larini kreditning foiz to'lovlari uchun yo'naltirib borish;

9.1.5. Jamg'arma tomonidan kompensatsiya ajratilishi rad etilgan taqdirda, Jamg'armaning kompensatsiya ajratilishi rad etilganligi to'g'risidagi xabarnomasi Bankka kelib tushgandan so'ng Qarz oluvchini (telefon qo'ng'rog'i, SMS-xabarnoma, bankning Call-markazi, pochta, elektron pochta va/yoki boshqa aloqa vositalari orqali har qanday shaklda) bu haqida xabardor qilish;

9.1.6. Jamg'arma tomonidan kompensatsiya ajratilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Jamg'armaning kompensatsiya ajratilishi to'g'risida xabarnomasi Bankka kelib tushgandan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida kompensatsiya ajratilishi to'g'risida Qarz oluvchini (telefon qo'ng'rog'i, SMS-xabarnoma, bankning Call-markazi, pochta, elektron pochta va/yoki boshqa aloqa vositalari orqali har qanday shaklda) xabardor qilish.

9.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

9.2.1. Olingan kreditni va hisoblangan foizlarni ushbu shartnoma shartlariga hamda kreditni qaytarish grafigiga muvofiq muddatida to'lab borish;

9.2.2. Kreditlashning ta'minlanganlik, muddatilik, qaytariluvchanlik, to'lovlilik va maqsadlilik tamoyillariga qat'iy amal qilish.

9.2.3. Bank tomonidan ajratilgan kreditni ushbu shartnomada belgilangan maqsadlarga ishlatish va mazkur shartnomada qayd etilgan muddatlarda to'liq qaytarishi.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

9.2.4. Bank so'roviga binoan Bank vakillariga kredit ta'minotiga, kreditga taalluqli bo'lgan boshqa mol-mulklarni ko'zdan kechirish va ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarilishiga taalluqli bo'lgan har qanday turdagi boshqa mol-mulklarni borib ko'rish imkoniyatlarini yaratib berish va ushbu jarayonlarga to'sqinlik qilmaslik.

Bankning mas'ul xodimlari tomonidan kreditning maqsadli ishlatilishi joyiga borib tekshirilganda, o'rganish (tekshirish) o'tkazishga ruxsat berish hamda sharoit yaratib berishi shart. Maqsadli tekshiruvlar muddati hamda vaqti bank tomonidan aniqlanadi va u kredit oluvchi bilan kelishilmaydi.

9.2.5. Agar ta'minot garov bo'lsa, Qarz oluvchi sug'urta kompaniyasi orqali garov predmetini sug'urtalashga va mazkur shartnomaning butun amal qilish muddati uchun ushbu sug'urtani ta'minlashga majburdir. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

Agar ta'minot garov bo'lsa, Garov predmeti qiymatini tomonlar kelishuv dalolatnomasi, kredit berishning to'liq davri uchun garov obyektining sug'urtalanganligi to'g'risidagi sug'urta polisi va Garov predmetining rasmiylashtirilgan Garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan bankka taqdim etilishi shart.

Agar ta'minot kredit qaytmaslik xataridan sug'urtalash sug'urta polisi bo'lsa, ushbu shartnoma doirasida bankka tegishli tarzda rasmiylashtirilgan kredit berishning to'liq davri uchun (mazkur shartnomaning butun amal qilish muddati uchun) rasmiylashtirilgan sug'urta polisini bankka taqdim etishi. Bunda, sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

9.2.6. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni va ta'minlovchi shartnoma (lar) da nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishlicha bajarish. Ta'minot yo'qotilganda yoki bozor qiymati kamayganda Qarz oluvchi unga teng bo'lgan ta'minotni taqdim etish yoki ta'minotni tiklash majburiyatini oladi.

9.2.7. Agar ta'minot garov bo'lsa va Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarning kredit shartnomasida kelishilgan va to'lov grafigida belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lanmaslik holati 30 kundan ortgan taqdirda, Bank qarzdorga rasmiy ogohlantirish xati yuborgan kundan boshlab 15 kun muddat ichida qarzdorliklar Qarz oluvchi tomonidan to'lanmasa, Fuqarolik kodeksining 280-moddasi ikkinchi qismiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan bank va mijoz o'rtasida tuzilgan hamda notarius tomonidan tasdiqlangan yozma bitimga muvofiq, garov predmetining sudga murojaat qilinmasdan Bank tomonidan mustaqil ravishda tasarruf qilinishi huquqini Bankka taqdim qilish.

9.2.8. Bank talabiga binoan ushbu Shartnoma amal qiladigan butun davr mobaynida, Bankni qoniqtiradigan shakl va mazmun bo'yicha Qarz oluvchi, kafilning daromadlari to'g'risidagi axborotni va ushbu kreditga tegishli bo'lgan boshqa ma'lumot va hujjatlarni Bankka taqdim etish.

9.2.9. Pochta va elektron manzili, telefon raqami, familiyasi yoki ismidagi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan boshqa holatlardagi o'zgarishlar to'g'risida Bankni bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan oldin 5 (besh) bank ish kuni mobaynida xabardor qilish.

9.2.10. Ushbu shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Qarz oluvchi Bankning oldindan rozilgisiz ushbu Shartnomaga yoki uning shartlariga zid bo'lgan boshqa turdagi bitimlarni, shu jumladan, Qarz oluvchining nomida bo'lgan barcha turdagi mol-mulklarni begonalashtirish va uchinchi shaxslar tasarrufiga o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirmasligi va uchinchi shaxslarning kreditlarini va/ yoki qarzlarini jalb qilmasligi kerak.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

9.2.11. Uchinchi shaxslar oldidagi boshqa majburiyatlaridan oldin, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni birinchi navbatda bajarish.

9.2.12. Qarz oluvchining kompensatsiya mablag'lari ajratilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 517-son qarori bilan tasdiqlangan "Yashil" iste'mol krediti bo'yicha foiz to'lovlarining bir qismini qoplab berish tartibi to'g'risida" nizom talablariga va Jamg'arma talablariga muvofiq bo'lishi.

9.2.13. Bankka bog'liq bo'lmagan hollarda (xarajatlar smetasining tasdiqlanmaganligi, yuqori turuvchi organlar tomonidan Jamg'arma hisobvaraqlarining to'xtatib qo'yilishi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mablag'lar ajratilmaganda va boshqa hollarda) kompensatsiya ajratish kechiktirilganda, shuningdek ushbu shartnomaning 4.10-bandida ko'rsatilgan holatlar sababli kompensatsiya berilishi va kompensatsiya mablag'larining kredit foiz to'lovlariga yo'naltirilishi to'xtatilganida Bank javobgar hisoblanmasligini va Bankning hech bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olmasligini tan olish va tasdiqlash.

9.2.14. Kompensatsiya ajratilishi yoki ajratilmasligi to'g'risida Jamg'armaning har qanday qarori va Jamg'arma tomonidan qaror qabul qilinishi uchun sarflanadigan muddat bo'yicha Bank hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmasligini va javobgar hisoblanmasligini tan olish va tasdiqlash.

9.2.15. Kompensatsiya taqdim qilinishi va kompensatsiya mablag'larining maqsadli ishlatilishini tekshirib borilishi uchun Qarz oluvchi(kafil(lar))ning F.I.Sh., JShShIR, Qarz oluvchiga ajratilgan kredit summasi, kredit muddati, foiz stavkasi, kredit maqsadi, kredit berilgan sana, kreditni qaytarish sanasi, hisobvaraqlardagi hisoblangan foizlar, kredit shartnomasi va kreditni qaytarish grafigi nusxasi hamda kredit bo'yicha boshqa ma'lumotlar va hujjatlarning Bank tomonidan Jamg'armaga taqdim qilinishiga rozilik bildirishi va bunga qarshilik qilmaslik;

9.2.16. Jamg'arma tomonidan istalgan paytda kompensatsiyadan maqsadli foydalanilayotganlik bo'yicha o'rganish (tekshirish) o'tkazilishiga rozilik bildirishi va qarshilik qilmasligi;

9.2.17. Bankka va Jamg'armaga bog'liq bo'lmagan hollarda (xarajatlar smetasining tasdiqlanmaganligi, yuqori turuvchi organlar tomonidan Jamg'arma hisobvaraqlarining to'xtatib qo'yilishi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mablag'lar ajratilmaganda va boshqa hollarda) kompensatsiya ajratish kechiktirilganda, shuningdek ushbu shartnomaning 4.10-bandida ko'rsatilgan holatlar sababli kompensatsiya berilishi va kompensatsiya mablag'larining kredit foiz to'lovlariga yo'naltirilishi to'xtatilganida, kredit bo'yicha foiz to'lovlarini foiz to'lovlarining kompensatsiya evaziga qoplanadigan qismi bilan birgalikda kredit qaytarish grafigiga muvofiq to'lab borish.

X. Majburiyatlarning bajarilmaslik holatlari

10.1. Ushbu badda qayd etilgan hodisalar Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi holatlari hisoblanadi:

- Qarz oluvchining kredit, unga hisoblangan foizlar va/yoki boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini ushbu Shartnoma, uning bo'yicha kreditni qaytarish grafigi, shuningdek, ushbu Shartnomada belgilangan shartlar doirasida bajarilmasligi;
- Bankni ataylab haqqoniy bo'lmagan hujjatlar taqdim etgan holda chalg'itish;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

- Qarz oluvchi tomonidan kredit ta'minoti bo'yicha Bankka berilgan istalgan ta'minot turining qisman yoki to'liq o'z qiymatini yo'qotilishiga yo'l qo'yilganligi;

- Qarz oluvchi va/yoki kafilning to'lov qobiliyatining yomonlashganligi yoki ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarilmasligiga olib keladigan aniq ma'lumotlarning yashirilganligi;

- ushbu Shartnoma shartlari va unda nazarda tutilgan majburiyatlarning lozim darajada bajarilmaganligi;

- ushbu Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar shartlarining (garov, kafillik va h.k.) buzilishi.

10.2. Qarz oluvchi tomonidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelgan taqdirda, Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi harakatlardan birini amalga oshirishi mumkin:

- Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganligi va uni bartaraf etish uchun muddatni belgilagan holda yozma bildirishnoma (xabarnoma / e'tiroz xati) yuborish;

- Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganda uning banklardagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank kartasi va h.k.) Qarz oluvchining roziligini olmagan holda (akseptsiz tarzda) kredit bo'yicha mavjud qarzдорlikni qoplashga yetadigan pul mablag'larini yechib olish;

- ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini qo'shimcha ravishda ta'minlanishini talab qilish;

- ushbu shartnomaning 10.1-bandida ko'rsatilgan holatlar yuz berganda, Qarz oluvchidan kreditning hammasini yoki uning bir qismini belgilangan tartibda muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;

- kredit bo'yicha barcha qarzдорliklarni mazkur shartnomada va kredit ta'minoti yuzasidan tuzilgan shartnomalarda (garov, kafillik, sug'urta va h.k.) belgilangan tartibda undiruvni ta'minotga qaratgan holda undirish.

XI. Tomonlarning javobgarligi

11.1. Tomonlarning ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

11.2. Kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kreditga), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foizning 1,5 baravari miqdorida foiz (oshirilgan foiz) to'laydi. Bunda, mazkur Shartnoma bo'yicha yillik qarz summasining yarmidan ko'p miqdorida oshirilgan foizlar hisoblashga yo'l qo'yilmaydi.

11.3. Berilgan kreditning maqsadsiz ishlatilish hollari aniqlangan taqdirda, Qarz oluvchi maqsadsiz ishlatilgan summaning 25 (yigirma besh) % miqdorida jarima to'laydi va ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan kredit summasini jarima bilan birgalikda Bankka to'liq qaytarilishini ta'minlaydi.

11.4. Mazkur shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi natijasida oshirilgan foiz to'lovlarining va jarimalarning undirilishi (to'lanishi) Tomonlarni o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XII. Fors-major holatlari

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

12.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko'ra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo'lmagan favquloddagi hodisalar natijasida vujudga kelgan, yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi, xususan: yong'in, tabiiy ofat va ushbu shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi, tomonlarga taalluqli bo'lmagan boshqa hodisalar kiradi.

12.2. Shartnomaning 12.1-bandida ko'rsatilgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga tushgan tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda 2 kun ichida xabardor qilishi va tugaganligi to'g'risida ham ikkinchi tomonni xabardor qilishi shart.

12.3. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlari sodir bo'lgan taqdirda, shartnomaning amal qilish muddati shunday holatlar va uning oqibatlari butun davriga teng muddatga uzaytiriladi.

XIII. Nizolarni hal qilish tartibi

13.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va/yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan, shuningdek, mazkur Shartnomaning 9- va 10-bo'limlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganda va majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda barcha kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

13.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Bankning ushbu shartnoma asosida kredit ajratgan hududiy bo'linmasi joylashgan hududdagi sudga murojaat qilish orqali hal etiladi (Shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

13.3. Bank kredit mablag'larining muddatida qaytarilmaganligi hamda ushbu shartnomaning 10-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganligi natijasida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi usullaridan foydalanishi mumkin:

- Qarz oluvchi (kafil)ni kredit to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida og'zaki va yozma ravishda ogohlantirish;

- Qarz oluvchining bankdagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank kartava h.k.) tegishli mablag'larni uning roziligini olmagan holda (akseptsiz tarzda) yechib olish.

13.4. Bankning ushbu Shartnomaning 13.3-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasligi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

13.5. Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag'larini qaytarish muddatlariga rioya qilinmagan taqdirda hamda ushbu shartnomaning 10-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganida Bank o'z ixtiyoriga ko'ra kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval undirish to'g'risida:

a) ijro xati yozishni so'rab notariusga;

b) hal qiluv qarori chiqarishni so'rab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin.

XIV. Shaxsga doir ma'lumotlar

14.1. Qarz oluvchi ushbu shartnomani imzolash orqali Bankka Qarz oluvchining shaxsiga oid ma'lumotlarga ishlov berishga o'z roziligini beradi.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

14.2. Bank Qarz oluvchining shaxsiga oid ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi va ishlov berishi mumkin:

- ushbu shartnoma bo'yicha Bankning huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini ijro qilishda;
- Qarz oluvchi huquq va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlashda;
- Qarz oluvchi to'g'risidagi kredit axborotini olishda;
- Bankka kredit resurslarini taqdim qiluvchi tomonidan talab qilingan ma'lumotlarni taqdim qilishda (kredit jalb qilingan resurslar hisobidan amalga oshirilgan taqdirda);
- kompensatsiya mablag'larini taqdim qiluvchi tomonidan talab qilingan ma'lumotlarni taqdim qilishda;
- kredit ta'minotiga oid bitimlarni rasmiylashtirish uchun notarius, sug'urta kompaniyalari, garov reyestri, kadastr va ichki ishlar idoralariga murojaat qilishda;
- muayyan bank xizmatining samaradorligini baholash uchun marketing izlanishlarini o'tkazish, tahliliy yoki statistik ma'lumotlarni tayyorlash va umumlashtirishda;
- Bank boshqaruv organlari, nazorat organlari, auditor yoki potensial investorlar uchun Bankning faoliyati va moliyaviy holatiga oid hisobotlarni tayyorlashda;
- Qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarni verifikatsiya qilish, shu jumladan, firibgarlik holatlariga yo'l qo'yilmasligi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida;
- davlat idoralari hamda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga muddati o'tgan kredit qarzдорliklarini undirish uchun murojaat qilishda;
- yangi bank xizmatlarini taklif etish maqsadida;
- yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun shaxsga oid ma'lumotlar aks etgan hujjatlarni ma'lumot almashinish uchun aloqa (pochta) xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarga taqdim qilish, elektron axborot almashinish dasturlari bazalariga joylashtirishda.

XV. Korrupsiyaga qarshi shartlar

15.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion harakatlarni to'liq ta'qiqlashni kafolatlaydi va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib talablariga amal qiladilar.

15.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

15.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar “Mikrokreditbank” ATBning ishonch telefonlari orqali amalga oshiriladi.

15.4. Ushbu bo‘lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma’lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

15.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XVI. Boshqa shartlar

16.1. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchining uchinchi shaxslar bilan tuzgan har qanday turdagi shartnomalari (bitimlari)dan yuridik jihatdan mustaqil bo‘lib, Qarz oluvchi uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnomalari (bitimlari) qoidalariga asoslanib Bankka e’tiroz bildirmaydi.

16.2. Har bir tomon ushbu Shartnoma predmeti va shartlariga bog‘liq ma’lumotlarning maxfiyligini saqlaydilar. Ushbu ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur shartnoma shartlariga ko‘ra tegishli organ va muassasalarga berilishi bundan mustasno.

16.3. Ushbu Shartnoma Tomonlar o‘rtasida imzolanganidan so‘ng kuchga kiradi hamda Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

16.4. Mazkur Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuviga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

16.5. Ushbu Shartnomaga barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar tomonlar tarafidan yozma shaklda rasmiylashtirilgan va imzolagan qo‘shimcha kelishuvlar tarzida rasmiylashtiriladi. Mazkur Shartnoma va qo‘shimcha kelishuvlar shartlari bir-biriga zid bo‘lgan taqdirda, qo‘shimcha kelishuv shartlari amal qiladi.

16.6. Bank ushbu shartnoma doirasidagi har qanday xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani o‘z ixtiyoriga ko‘ra Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 17-bo‘limida ko‘rsatilgan pochta manziliga buyurtma xat ko‘rinishida, telefon raqamiga SMS-xabar ko‘rinishida yoki elektron manziliga elektron xabar ko‘rinishida yuborishi mumkin. Xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani ushbu badda ko‘rsatilgan usullarning faqat bittasidan foydalangan holda yuborilishi Qarz oluvchiga ushbu xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnoma lozim darajada yetkazilgan deb hisoblanishi uchun kifoya.

16.7. Mazkur Shartnoma o‘zbek tilida tomonlardan har biri uchun, bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 (ikki) nusxada tuzilgan.

XVII. Tomonlarning manzillari, rekvizitlari va imzolari

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

